

## **O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQCHILIK IJODI TASNIFI** **(Doston ijrochiligi)**

**Panjiev Qurbonniyo Berdievich – Xalqaro Nordik universiteti “Musika ta’limi” kafedasi mudiri, pedagoigka fanlari doktori (DSc), professor v.b., etnomusiqashunos**

Xalq dostonlari va termalarini ijro etuvchi baxshi-shoirilar ijodi o‘zbek xalq musiqa ijodida alohida ajralib turadi. Doston o‘zbek xalq musiqa ijodida yirik epik janr bo‘lib, o‘ziga xos mavqei, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir, ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik kechinmalar she‘r va musiqa orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham dostonlarning ahamiyati beqiyos va boqiydir. Ular asrlar osha shu kunlargacha saqlanib, yashab, yanada sayqal topib xalqimiz hayotida muhim o‘rin egallab kelmoqda<sup>1</sup>.

Doston so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor beradigan bo‘lsa, qissa, hikoya, ta‘rif, sarguzasht ma‘nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnografik-etnopedagogik janr bo‘lib, xalqning ma‘naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik, do‘stlik, odob, axloq kabi tarbiyaviy sifatlarni targ‘ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Insoniylikning eng ulug‘ sifatlari ma‘lum darajada bo‘rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o‘rnak olish hissi tug‘iladi va shu asosda ta‘sir etadi. Doston juda ulkan va murakkab, noyob xazina bo‘lib, uning yaratilishi va sayqal topishida ajdodlarmizning beminnat va ulkan mehnati sarflangan. Dostonlarni asosan baxshilar, Xorazm viloyatida esa baxshi xonandalar, Qoraqalpog‘istonda jirov-baksilar kuylashadi. “Baxshi” mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod”, “ma‘rifatchi” degan ma‘nolarni anglatadi. Baxshilar ijodida do‘mbira cholg‘usi, qoraqalpoq jirovlarida qo‘biz, Xorazm viloyatida dutor, tor, qo‘shnay, doyra, akkordion cholg‘ulari yetakchilik qiladi.

Doston – o‘zbek xalqining qadimgi manaviy va badiiy merosining durdonasi bo‘lib, ularning asosini xalq hayoti va kurashi, uning orzu umidlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatga muhabbat, do‘stlik, sevgi va sadoqat kabi oliyjanob fazilatlar xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan”. Xalq dostonlari va do‘mbira kuylarini F.M.Karomatli, R.Abdullaev, B.Matyoqubov tadqiqotlarida dunyodagi ayrim xalqlarda o‘zining boy tarixiga oid yirik hajmdagi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash “doston” so‘zini anglatishini etirof etadi. Xalq donishmandligining yorqin ifodasi bo‘lgan bu obrazli ijodiyot namunalari jamiyat va tabiat xodisalariga inson munosabatining musiqiy-poetik obrazi sifatida baxshilar tomonidan asrlar

---

<sup>1</sup> Абдуллаев Р.С., Ўзбек мумтоз музыкаси. Тошкент. 2008. 46 б.

mobaynida sayqallangan. O‘zbekistonda xalq dostonchiligi, shuningdek, epik hikoya, doston janrlari (doston, qissa, hikoya, madhiya yoki qasida, sarguzasht) o‘zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa va cholg‘u jo‘rnovozligida namoyon etadi. Doston aytuvchisini mamalakatimizning turli hududlarida mahalliy aholi shevasidan kelib chiqqan holda turlichsa nomlab keladi. Masalan, Surxondaryo-Qashqadaryoda baxshi, shoir, Xorazmda dostonchi, baxshi, ayol dostonchilarni xalfa, Samarqand, Toshkent viloyatlarida baxshi, Farg‘ona vodiysida baxshi, Qoraqalpog‘istonda baxshi va jirov deb aytishadi.

“Baxshi” so‘zi qadimdan bemorni xalqona usullar bilan davolovchi tabib – doyra va yoki boshqa cholg‘u asbobi chalib, afsungarlik ayimlari orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi (hozirgacha saqlanib kelayotgan “ko‘ch”, “qaytarma”, “jahr” marosimlari) -shomon-baxshi yoki shomon-folbin, shuningdek, ayrim hududlarda “ustoz” manolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so‘z xalq dostonlarini kuylaydigan ijodkor sanatkornlarni bildiradi.

Musiqashunos olim R.Abdullaev O‘zbekistonda mavjud dostonlarni mavzusiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lishni tavsiya etadi. Bular:

1. Qahramonlik-bahodirlik dostonlari;
2. Tarixiy dostonlar;
3. Romantik (sevgi haqidagi) dostonlar;
4. Diniy dostonlar.

Shuningdek, shular bilan bir qatorda jangnoma, maishiy, zamonaviy va avtobiografik dostonlar ham amaliyotda mavjudligini, qahramonlik-bahodirlik dostonlari o‘zbek xalqining ko‘chmanchilik hayot kechirish sharoitida paydo bo‘lganligini e‘tirof etadi. Bu dostonlarning qahramonlari albatta behisob kuch-quvvatga ega, vatanga, sevikli yoriga, xalqiga sadoqatli qilib tasvirlanadi. Shunday dostonlardan biri, halqimizning eposi “Alpomish” dostonidir. Doston qahramoni Alpomish nafaqat sehrli, balki o‘z yorini sevuvchi, raqiblar bilan kurashda mislsiz qudratga ega.

“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, “Yusuf va Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Sohibqiron” va “Qirq qiz” kabi turkum dostonlar hisoblanadi. Baxshilar ushbu dostonlar ijrosidan oldin “Nima aytay”, “Nimadan boshlay”, “Xush ko‘rdik”, “Asl yurtim”, “Mehmondirmiz”, “Termadan boshladim”, “Quloq osing so‘zima”, “To‘y bugun”, “Yoshing qutlug‘”, “Ko‘hna dunyo”, “So‘zima eshit”, “Do‘mbiram”, “Meni eshit do‘mbiram”, “Ota nidosi”, “Haqiqatni bayon aytay”, “Dostondan boshlasam” kabi termalarni kuylaganlar.

Respublikada Sherobod, Boysun, Bulung‘ur, Qarshi, Dehqonobod, Bo‘ka, Jizzax, Xorazm, Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud bo‘lib, ushbu maktabni 100 dan ziyod turli yoshdagi baxshilar tashkil etadi. Doston aytuvchilar bayram va oilaviy marosimlarga doim hurmatli mehmon sifatida taklif qilinib kelingan. Ular ijrosida turli mavzulardagi termalarni tinglash mumkin. Ayollar orasida birinchilardan bo‘lib, ichki bo‘g‘iq ovozda doston va termalar kuylagan Qumqo‘rxonlik Zulxumor baxshi o‘zining ijro usubi bilan tinglovchilarga yaxshi taassurot qoldirib, u ham “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarini kuylab kelmoqda. Uning ustozlari Shoberdi baxshi Boltaev va akasi Omon baxshi Shernazarovlardan baxshichilikning sir-sinoatlarini qunt bilan o‘rganmoqda.

Dostonchilik ijodiyoti – baxshi-shoirlarning terma va dostonlari viloyat qo‘shiqchilik ijodiyotining asosini tashkil etadi. Qiziriq tumanida Xushboq baxshi Mardonaqul o‘g‘li, Denov tumanida Boborayim baxshi, Qumqo‘rg‘onda Juma Abrayqulov, Sherobot tumanida Shaymon baxshi, Angorda Chorsha baxshi, Muzrabotda aka uka Qora va Chori baxshi Umirovlar ustoz-shogird an‘anasiga yetakchilik qilmoqda.

Xorazm baxshi-dostonchilar san‘ati o‘ziga xos bo‘lib, o‘zbek xalq musiqasida alohida o‘ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo‘shiq shaklida ochiq ovozda cholg‘u ansambl jo‘rligida ijro etiladi. Xorazm baxshichiligi Shirvoniy va Eroniy uslublarga bo‘linadi. Shirvoniy uslub Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimidagi hududda tarqalgan (markazi-Xiva). Bu uslub namoyondalari dutor, g‘ijjak, bo‘lamon va doyra jo‘rligida kuylaydilar. Unda 72 ta doston kuylari mavjud bo‘lib, bular Muxammaslar turkumi (5 ta kuy), Ilg‘orlar (4), Eshvoylar (5), Naylarman-lar (5), Nolishlar (7), Shirvoniylar (3), Zorinjilar (2), “Rahm ayla”, “Boboxonim”, “Gulandom” va boshqalardir.

Eroniy uslub Amudaryoning quyi oqimi hududida tarqalgan (markazi - Mang‘it sh.). Ushbu uslub baxshilari dutor, g‘ijjak, bo‘lamon jo‘rligida doston kuylashadi. Ularning qo‘shig‘iga doyra cholg‘usi jo‘r bo‘lmaydi. Eroniy uslubda 32 ta doston kuylari bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Shirvoniy nomalar bilan o‘xshash, lekin Sarparda, Ko‘r qiz, Qo‘shadas, Qo‘shim Polvon Ilg‘ori va boshqalari bilan ajralib turadi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Xiva xonligida 40 dan ortiq baxshilar faoliyat ko‘rsatgan va ulardan eng mashhurlari Eshvoy baxshi, Muhammadniyoz Go‘rji, Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyov baxshi, Jumanazar baxshi, Axmad baxshi, Bola baxshi Abdullaev va boshqalarni nomini tilga olish mumkin.

Xorazm dostonchilik maktabining yirik vakillari: Suyav baxshi (XIX asr), Jumanazar baxshi, Ahmad baxshi, Matnazar Jabbor o‘g‘li, Bola baxshi, Xudoybergan O‘tagan o‘g‘li, Ollobergan baxshi, Murod baxshi, Boltaboy baxshi, Jumaboy baxshi, Qodir sozchi va boshqalar. Ular repertuarida “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari, “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Maxmud”, “Oshiq Oydin”, “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Tulumbiy” kabi dostonlar mavjud.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilik ijodiyoti o‘zining rang-barang tarovati bilan o‘zgacha shukuh kasb etib turadi. Dostonchilik ijodiyotida terma kuylash baxshi uchun majburiy xususiyat xisoblanadi. Terma kuylash orqali baxshi o‘zining darajasini, ijro mahoratini, shoirlik sifatlarini, o‘zining kimligini, qaysi urug‘, qaysi elatga mansubligini va hatto bilim darajasini namoyon etgan. Termalarda asosiy diqqat e‘tibor she‘riy matn bilan do‘mbira kuyining falsafiy mazmuniga qaratiladi.

1991-1999 yillarda olib borilgan musiqiy folklor ekspeditsiya davrida mehmondirmiz termasini rasm bo‘lganligiga guvoh bo‘ldik. Ushbu terma dastlab Sherobod baxshichilik maktabi ijodkorlari tomonidan ijod etilganligini qayd etib o‘tish joiz. Umuman baxshichilik ijodiyoti asosan o‘zbekning qo‘ng‘irot urug‘iga mansab aholi orasida mavjud bo‘lib, qo‘ng‘irot urug‘i aholisining ijodiy mahsuli desak ayni haqiqat bo‘ladi. Mehmondirmiz termasida dunyo, olam, hatto ota-onani ham bu dunyoda omonat ekanligi, hamma bir-biriga mehmon ekanligi xususidagi fikrlar bayon

etilgan. Qolaversa, shuni ham alohida ta'kidlash joizki, dostonchilik ijodiyoti asosan qo'ng'iroq urug'i orasida keng tarqalganligini ko'rish mumkin.

### **Mehmondirmiz**

A xoy yorey yey, exe xe xe xeeey  
Ajab tovur ekandaey bu dunyoning ishlari  
Kuzlab kelsin, bahor qaytib kuzlab kelsin  
Surxondaryom qishlari  
Dovushumdan obad bo'lsin do'mbiram  
O'zbekiston dashtlari xe-xey  
Ota ulga, ul otaga, ena qizga, qiz enaga  
Bu dunyoda mehmondirey

Joshin tushsa bukchayadi  
Bobotovning bellari  
Do'mbirani gulga solar  
Har baxshining qo'llari  
Odamzodning sirtin bosib jotsinay  
Ota degan uliminan qizlari a xa yey  
Kallangdagi qora choching bu tenangda  
Bu dunyoda mehmondir

Tovib kelsa belga baylar putingdi  
Bolam deydi kechiradi  
Sina tovda xatongdi  
Tirilikda hurmat qilgin  
Ta'lim bergan oqsoqqolli otangdi  
Boshi go'rga kirguncha  
Ota bizga mehmondir

Sizu-bizlar jurganmizda  
Bir qorinda to'qqiz oylar aylanib  
Bir mushtipar ko'targanda  
Bolam deba bir qorinda  
Sizu-bizni to'qqiz oylar qiynalib  
Osh qozonda nonna berib  
Tol beshikka quymoq solib, chaynalib  
Oq sut bergan enalara  
Sizu-bizga mehmondir

Ey xaloyiq bu dunyong kaptarxonada  
Biru uchib, biri qaytib qo'nadi  
Bolasiga ta'lim bergan ota minan enadi  
Joshliginda joshliging qulpu joshda jonadi  
Xudo solga ishgaey har bir banda

Oxir bir kun ko'nadi  
Qariy bersang oq suyaging  
Oxir bir kun qora jerga kiradiya  
O'n betingda qora xoling bu tanangda  
Bu dunyoda mehmondir

El oralab aytilar terma doston kuylarim  
Jo'llarimga qarab jotar  
Ota degan uli minan qizlarim  
Uyginanga borsaya nasiba qilsa  
Eldan topgan dastruxonda tuzlaring  
Men bilmayman bu qo'l yog'och  
Menginaga necha jilik do'stlarimay mehmondir  
Ushbu terma aholi tilidan yozib olingan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kid etish joizki, voha qo'shiqchilik ijodiyoti musiqshunos olimlarning tasnifi asosida bir tizimga keltirilib, "ma'lum vaziyat aytimlari" (oilaviy marosim, mavsumiy) va "turli mavzuli qo'shiqlar" (qo'shiq, terma, lapar, yalla) kabi iboralar bilan tasnif etildi.

Bunda, alla, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi kabi qo'shiq aytimlar ustuvor bo'lgan oilaviy marosim haqida alohida to'xtalib, unda ijro etiladigan qo'shiqlar alohida ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, yil fasllariga xos gap gashtak (qish), bahor mavsumiga xos "Navro'z" bayrami, sumalak, lola sayli, boychechak sayli, darveshona, shox moylar marosimlari, yoz mavsumida sust xotin, kuz faslida o'rim, oblobaraka, shamol chaqirish marosimlaridagi qo'shiqlar mavsumiy qo'shiqlar, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandlik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari sifatida tadqiq etildi. Turli vaziyat qo'shiqlari sifatida qo'shiq, terma, lapar, yallalar o'rin oldi. Shuningdek, baxshi-shoirlar ijodidagi terma va dostonlar, tadqiqot uchun yangilik deb etirof etilgan "doyra badashlari" haqida ma'lumotlar keltirildi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62
2. Ibrohimov O.A. "Maqpm va makon" Movaraunnahr, Toshkent 1996-yil.
- 3.Karamatov F.M O'zbek xalq musiqasi merosi. XX-asr. Terma, yalla, qarsak, kirish maqolasi. Toshkent G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985. B.-2-23.
- 4.Panjiyev Q.B. Salimova D. Vokal musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillari va uslublari. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2018y. B.86.
- 5.Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. B. 210.